

## SUBYEKTIV NAZORATGA EGA BO'LGAN SHAXSLARDA MULOQOTNING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Bahodirova Sitora Nodir qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada subyektiv nazoratga ega bo'lgan shaxslarda muloqotning ijtimoiy psixologik xususiyatlari hamda yoshlarda shakllangan subyektiv nazorat va subyektiv nazoratning turli lokus nazoratiga ega shaxslar o'rtasidagi muloqotiga ta'siri haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Shaxsning subyektiv nazorati, lokus nazorati, internal, ichki lokus nazorati, eksternal, tashqi lokus nazorati, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, shaxslararo muloqot, ichki va tashqi omillar.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности общения у лиц с субъективным контролем, а также влияние сформировавшегося у молодежи субъективного контроля и субъективного контроля на общение между лицами с различным локусом контроля.*

**Ключевые слова:** *субъективный контроль личности, локусный контроль, внутренний, внутренний локусный контроль, внешний, внешний локусный контроль, социально-психологические характеристики, межличностное общение, внутренние и внешние факторы.*

**Annotation.** *This article discusses the social psychological characteristics of communication in individuals with subjective control and the impact of subjective control and subjective control formed in young people on communication between individuals with different locus control.*

**Key words:** *subjective control of the individual, locus control, internal, internal locus control, external locus control, social psychological characteristics, interpersonal communication, internal and external factors.*

**Kirish.** O'zining mustaqil rivojlanish yo'lidan taraqqiyot etayotgan Davlatimiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, hozirgi taraqqiy etgan davr ruhida tarbiyalash — dolzarb va ustuvor vazifalardan biri deb aytsak xato qilmagan hisoblanamiz. Hozirgi kunda davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning rivoji yoshlarimizning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarning teran tafakkur etishni taqozo etadi. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda qaror topgan. Quyidagi tadqiqotlar natijasi jamiyatning yangilanishi davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi.

"Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartlaridan biridir. Shaxs hayoti davomida aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Azaldan individ shaxs darajasigacha yetishishi uchun ma'lum mezonlar ta'siri beqiyos muhimdir. Bunday mezonlardan biri bu shaxs munosabatlaridir. Bizga ma'lumki, shaxs munosabatlari ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Bunda butun bir ijtimoiy tuzumni xarakterlovchi keng ijtimoiy munosabatlar katta ahamiyatga ega.

Muloqot jarayonining ham, guruhij jarayonlarning ham egasi-subyekti hamda obykti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rganadi, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtayi nazardan tekshiradi.

Shaxs – bu ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi ongli, faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam. Shaxslararo munosabatlarda muloqot jarayonini egasi ham, obykti ham subyekti konkret odam hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlar - ijtimoiy iyerarxik zinapoyani tashkil etuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar majmuyi hisoblanadi. Insoniy munosabatlar asosan jamiyat a'zolari o'rtasida turli xil aloqa turlari orqali mavjud bo'lgan munosabatlarga asoslanadi: birinchi navbatda vizual (yoki og'zaki bo'lmagan aloqalar, ular tashqi ko'rinish va tana harakatlari, imo-ishoralar), lingvistik (og'zaki nutq), shuningdek murakkab jamiyatlar (iqtisodiy, siyosiy va boshqalar) rivojlanishi natijasida qurilgan tillar hisoblanadi.

Shaxs hayotini normal tarzda tashkil etishning muhim tarkibiy qismi bu shaxslararo munosabatlardir. Shaxslarning ichki subyektiv nazorati hamda tashqi subyektiv nazoratining darajalari miqyosda yo'naltirilganligi omili asosan turli xil hayotiy sharoitlarda shaxsning turmush tarzi hamda xatti - harakatlarini aniqlab beradi. Shaxslararo munosabatlar - muloqot jarayonida paydo bo'ladigan yangi tizimli sifat - muloqot qiluvchi subyektlarni mustahkamlaydi va ular o'rtasida norozilik, nizolar, da'volar va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Shaxs subyektiv nazorati yoki lokus nazorati deb (lotincha locus - joy, manzil va fransuzcha controle – nazorat, tekshirish) - shaxsning o'z faoliyati natijalarini va mas'uliyatni tashqi omillarga (eksternal, tashqi lokus nazorati)ga yoki ichki omillarga (internal, ichki lokus nazorati)ga yuklashidir .

Lokus tushunchasi amerikalik psixolog J.Rotter tomonidan taklif qilingan. Lokus nazorati - bu shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadigan barqaror xususiyat. Lokus nazorati - shaxsning o'z maqsadlariga erishishdagi mustaqilligi, avtonomligi va faolligi darajasi bilan sodir bo'layotgan voqealar uchun shaxsiy javobgarlikni rivojlantiradigan psixologik tushuncha bo'lib, lokus nazorati shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi nazorat o'rtasidagi farq ularning hayotdagi haqiqiy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Ayollar hayotdagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini tushuntirish uchun ko'pincha taqdirga murojaat qilishadi. Erkaklar ulardan farqli o'laroq malaka va mahorat talab qiladigan faoliyatni afzal ko'radilar.

Erkaklar va ayollarning tarixan o'rnatilgan roli funksiyalari ular nazorat qilishga harakat qiladigan sohalarda o'z izini qoldiradi. Ayollarga qaraganda, erkaklar jamoat sohasiga (siyosat, iqtisod, atrof-muhit) ko'proq qiziqish bildiradilar va shaxsiy muammolarga (oilalar, kasb, o'z-o'zini rivojlantirish) kamroq qiziqish bildiradilar. Ayollarni shaxsiy muammolar ko'proq tashvishga soladi.

Karl Rojers odamlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan to'rtta xususiyatni aniqladi:

- muvofiqlik - tajribamiz va uning xabardorligining aniq muvofiqligini bildirish uchun ishlatadigan atama;
- o'zingni borligingcha qabul qilish;
- o'zga insonni qabul qilish;
- empatik aks ettirish, bunda boshqa insonning g'azabi, xijolati, yoki qo'rquvi xuddi shaxs o'zinikidek aks ettirishni anglatadi.

Shaxslararo muloqotda shaxslarning subyektiv nazorat darajalari shaxslararo munosabatlarga va muloqot payti shaxslardagi psixologik himoya strategiyalariga qanday o'zaro bog'liqligi inson faoliyatining turli sohalari uchun muhim omil hisoblanadi.

Biz tanlagan muammoning dolzarbligi shaxslararo munosabatlarda subyektiv nazorati (loqus nazorati) ning ta'siri, shaxslararo o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladigan ziddiyatli, nizoli holatlar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularni yo'qotish yo'llari to'g'risidagi tasavvurlar alohida o'rin tutadi. Bu tasavvurlar majmuyi shaxslardagi lokus nazorati turi (internal va eksternal) va darajasiga nafaqat shaxslar orasidagi muloqotda o'z o'rnini topish va muammoli vaziyatlardan chiqishning optimal yo'lini belgilashga imkon beradi, balki, keyingi mustaqil taraqqiyot davrida jamiyat miqyosidagi ijtimoiy munosabatlarga, chiroyli va muammosiz, osuda oilaviy hayotga ham tayyorlaydi.

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi shaxslarda subyektiv nazorat darajalarining psixologik xususiyatlari muammosining qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik psixologlar, xususan, fanga subyektiv nazorat tushunchasini kiritgan olim J. Rotter shuningdek, S. Rozensveyg, V. Torsteyn, K. Merton, D. Rismen, L. Uayt, D. Maklolland, Dj. Atkinson A. M. Etkind, E. F. Bajin va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan.

Turli lokus nazoratiga ega shaxslar o'rtasidagi muloqotning psixologik xususiyatlariga ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratilmagan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Lokus nazorati tushunchasi amerikalik psixolog Julian Rotter tomonidan 1954-yilda psixologiya faniga kiritilgan hamda bu kontseptsiya insonning hayot faoliyati davomidagi

narsa va hodisalar, voqealar va faoliyati natijalarini tashqi (eksternal, tashqi lokus nazorati) yoki ichki (internal, ichki lokus nazorati) omillarga yuklashi deb tushuniladi. Subyektiv nazorat ba'zi psixologik adabiyotlarda "irodali harakatni nazorat qilishning lokalizatsiyasi" deb ham ataladi.

J. Rotter psixologiya faniga qo'shgan hissasi beqiyos ulkan. Julian Rotter lokus nazorati haqida quyidagicha aytadi: "Psixologiyada shaxs muammosini o'rganish jarayonida aksariyat olimlar "Baxt kaliti" va qiyin hayotiy vaziyatlarda shaxs o'z - o'ziga psixologik yordam berish metodlarini topishga urinishda har bir shaxs va ushbu sohadagi har bir tajribali tadqiqotchi olim lokus nazorati sirlariga duch keladi. Bu inson ichida joylashgan va inson taqdiriga ta'sir qila oluvchi jiddiy omildir".

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi lokus nazoratiga ega shaxslar (eksternallar) ichki lokus nazoratiga ega shaxslar (internallar)ga qaraganda ko'proq ijtimoiy ta'sirga ega. Ichki lokus nazoratiga ega shaxslar (internallar) manipulyatsiya qila oladigan shaxslar hisoblanishadi va ular manipulatsiyaga moyil odamlarni yoqtirishadi va ular ta'sir qila olmaydiganlarni yoqtirishmaydi.

Ushbu muammoni hal etish mobaynida ya'ni tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki shaxs hayot faoliyatini nazorat qilish qobiliyatlariga qarab, hayotiy yondashuvlari hamda munosabatlarida farqlanadi va ko'pincha sezilarli darajada farq qiladi. Eksternallar bilan internallarni ajratadigan farqlaridan biri bu ularni qamrab oluvchi atrof-muhitga nisbatan turli xil qarashlarida va atrof-muhit borasidagi qarashlarida ma'lumot olish hamda izlash turlicha ekanligidadir.

Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda aytib o'tish lozimki, tashqi lokus nazorati tipalogiyasiga kiradigan shaxslar holatga yo'naltirilgan bo'lsa, ichki lokus nazorati tipalogiyasiga kiradigan shaxslar natijaga yo'naltirilganligi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda, subyektiv nazorat shaxsning umumiy hayotiy faoliyati xarakteri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. K. A. Abulxanova gepotizasi bo'yicha, shaxsning subyektiv nazorati ikkita tarkibiy qismga ega: mas'uliyat darajasi hamda tashabbus darajasi.

Internallar juda ko'p vaziyatlarda eksternallardan farq qilishadi. Ichki subyektiv nazoratga ega shaxslar aksariyat holatlarda mustaqillikka intilishadi, ular muvaffaqiyatga erishishga ko'proq moyil bo'lishadi, faoliyat jihatdan faolroq, liderlik hissiyoti juda ham baland ko'rsatkichda bo'ladi. Ular ko'proq hukmdorlikka intilishadi, atrof-muhit ustidan hukmronlik qilishga harakat qilishadi.

Internallar ko'proq ma'lumot va bilim izlashadi va ularni o'z atrof-muhitini boshqarish uchun ishlatishadi. Internallar ta'sirchan emas, ko'proq mustaqil fikr va o'z mulohazasiga ko'proq tayanadi. Eksternallardan farqli o'laroq, internallaar ma'lumotni manbaning obro'si yoki kompetentligiga qarab emas, balki o'z manbaning qiymati hamda sifatligiga qarab baholaydilar.

Internallar yuqori natijaga intilishadi va kattaroq natijaga erishish maqsadida m'lum ehtiyojlarni rad etishga ham tayyor bo'lishadi. Eksternallar juda ham ta'sirchan, zararli odatlarga beriluvchan va qimor o'yinlariga beriluvchanligi ularga katta xavf tug'diradi; ular

muvaffaqiyatga kam erishishadi, dominant va sabrli; boshqalardan yordam olishga ko'proq tayyor va o'zini kamsitishga moyil.

Tashqi lokus nazoratiga kiradigan shaxslarning psixik xususiyatlariga quyidagi psixik xususiyatlar kiradi: "tajovuz va hujum" o'zini himoya qilish reaksiya mexanizmlari, shaxsning o'ziga nisbatan ishonchining pastligi, ruhiy tushkunlik, depressiyaga moyillik va ruhiy kasalliklarga moyillik; o'z o'ziga xato baho berish; ijodiy salohiyatning yetarli darajada amalga oshirilmaganligi.

Internallarning o'ziga xos xususiyatlari: hissiy barqarorlik, axloqiy me'yoriylik, ishonchlilik, kreativlik, xushmuomalalik va iroda kuchi. Ko'pgina tadqiqotlar eksternallarni tashvish, depressiya, dogmatizm va avtoritarizm bilan sezilarli bog'liqligini ko'rsatdi. Umuman olganda eksternallar fatalistik tendentsiyalar bilan ajralib turadi.

Eksternallar – hayot faoliyatida ijtimoiy passivlik bilan ajraladi va noqulay sharoitda umuman harakat qilmaydi yoki vaziyatni o'z foydasiga o'zgartirishga harakat qiladi. Ushbu turdagi odamlar ichki lokus nazorati ega bo'lgan kishilarga nisbatan ijtimoiy ta'sirga moyil. Internallar, aksincha, vaziyatni o'z foydasiga hal qilish uchun o'z harakatlaridan foydalanadilar.

Ichki lokus nazoratiga ega bo'lgan odamlar hayotiy ustanovkalari eksternallarga qaraganda tub farq qiladi. J.Rotterning fikriga ko'ra, ular tashqi lokus nazoratiga ega bo'lganlarga qaraganda jismonan va ruhiy jihatdan sog'lomroq bo'ladi. Va o'z-o'zini hurmat qilish, o'z - o'ziga baho berish darajasi, ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ular tashqi lokus nazoratiga ega bo'lganlar kishilarga qaraganda yaxshiroqdir.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, internallar o'zlarini eksternallarga nisbatan ishonchli, xotirjam va xayrixohliroqdir. Eksternal tipdagi shaxslar hayotlari davomida ijtimoiy ta'sirga nisbatan ancha sezgir hisoblanadilar.

### **Xulosa**

Shaxs subyektiv nazorati va shaxslararo munosabatlar muammosiga o'tmishda va bugungi kunga qadar turli xil qarashlar mavjud bo'lib, bu fikrlar turli manbalarda Sharq va G'arb olimlarining tadqiqotlarida, ilg'or psixologiya olimlarining ilmiy tadqiqotlarida yillar davomida o'rganilib kelinmoqda.

Olib borilgan ilmiy - nazariy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, shaxslar – aro munosabatlarida namoyon bo'ladigan ziddiyatlar hamda turli xildagi lokus nazoratiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida nizoli holatlarni aniqlashga bag'ishlangan ishlarning mamlakatimizda bugungi kunda yetarli emasligi va shu bilan birga dolzarbligini ko'rsatdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xaydarov.F.I., Xalilova.N.I. Umumiy psixologiya. Toshkent 2009
2. Maxsudova.M. Muloqot psixologiyasi. TOSHKENT «TURON-IQBOL» 2006

3. Karimova.V.M.Ijtimoiy psixologiya. Darslik. T. 2009 у Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник, 2003
4. Андреева Г.М., Петровская Л.А., Богомолова Н.Н. Современная социальная психология на Западе. М., 2008.
5. Аракелов.Н.Е., Лысенко.Е.Е. Локус контроля и методы его исследования // Психологический журнал, 2007. - Т. 4. - №2 - С. 34 - 38.
6. Бендас Т.В. Гендерная психология: учебное пособие. СПб., 2007.
7. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика СПб., 2003.
8. Денисова Е.А. Гендерные особенности самореализации личности студентов: автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2010.

**Internet saytlari:**

1. <https://arxiv.uz/uz>
2. <https://kitobxon.com/oz>